

**«Kreditni limitlash boshqarmasi to'g'risida»gi
NIZOM**

Toshkent-2022 y.

I. Umumiy qoidalar

1.1. «Kreditni limitlash boshqarmasi to'g'risida»gi Nizom (bundan buyon matnda «Nizom» deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi, «Garov to'g'risida»gi, «Ipoteka to'g'risida»gi, «Iste'mol krediti to'g'risida»gi, «Mikromoliyalash to'g'risida»gi, «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 2 iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan «Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida»gi Tartib, Adliya vazirligida 2000 yil 5 aprelda 916-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomi hamda AT «Aloqabank» (bundan buyon matnda «Bank» deb yuritiladi) Ustavi hamda boshqa ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Ushbu Nizom Kreditni limitlash boshqarmasining (bundan buyon matnda «Boshqarma» deb yuritiladi) maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, funksiyalari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.3. Boshqarma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonun va qonunosti hujjatlari, shuningdek, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari hamda ushbu Nizomga muvofiq belgilaydi.

1.4. Boshqarmaga Boshqaruv Raisi tomonidan tayinlanadigan Boshqarma boshlig'i rahbarlik qiladi.

1.5. Boshqarma o'z faoliyatini Bank Boshqaruv Raisi tomonidan tasdiqlangan joriy va istiqbolga mo'ljallangan rejalar asosida olib boradi va Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlik qiladi.

1.6. Boshqarma tarkibi quyidagi bo'limlardan iborat:

- a) Korporativ va kichik biznes sub'ektlari kreditlarini limitlash bo'limi;
- b) Jismoniy shaxslar kreditlarini limitlash bo'limi;

1.7. Boshqarma xodimlarining lavozim majburiyatlari ushbu Nizomga ilova qilinadi.

1.8. Boshqarma zimmasiga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada bajarilishi uchun Boshqarma boshlig'i shaxsan mas'uldir.

1.9. Tarkibiy bo'linmalar zimmasiga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada bajarilishi uchun tegishli bo'lim boshliqlari javobgardirlar.

1.10. Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi bo'yicha hisobotni Bank Boshqaruvi Raisiga berib boradi.

II. Asosiy vazifalari va funksiyalari

2.1. Boshqarmaning asosiy maqsadi - Bankda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarni kredit olishlari uchun tayyorlangan kredit yig'majildi hujjatlarini amaldagi qonunchilik talablariga mosligini tekshirish va dastur bilan mutanosibligini ta'minlash, Kredit portfelini samarali boshqarish bo'yicha Kredit siyosatida belgilab berilgan o'z vakolati doirasidagi talablarni amalga oshirish.

2.2. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Boshqarma quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

a) Elektron kredit yig'majildga birlashtirilgan hujjatlardagi (bank mahsulotlari bo'yicha) ma'lumotlarni CBSra kiritilgan kredit ma'lumotlari bilan mos kelishini nazorat qilish;

b) KADR va KATM ma'lumotlar bazasiga yuborilgan kredit so'rovnomalari haqidagi

axborotni qabul qilinganligini tekshirish (kredit arizalari, kredit shartnomalari, kredit ta'minotlari bo'yicha kredit so'rovnomalari).

2.3. Bankning kompleks xizmat ko'rsatish markazlarida korporativ va kichik biznes sub'ektlariga milliy va xorijiy valyutada ajratilayotgan kreditlarni sog'lomlashtirish yuzasidan tegishli takliflar tayyorlash.

2.4. Bank kompleks xizmat ko'rsatish markazlarida ajratilayotgan kredit bo'yicha qarz oluvchilarning moliyaviy holatini o'rganish, kredit va garov hujjatlarining o'rnatilgan tartibda to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilish.

2.5. Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlarning yetarli garov narsasi bilan ta'minlanganligi va o'rnatilgan tartibda sug'urtalanganligini nazorat qilish.

2.6. Kreditlar berishning yangi uslublarini joriy qilish borasida izlanishlar olib borish va Bank Boshqaruviga takliflar berib borish.

2.7. Boshqarmaning funksiyalari uning tarkibidagi bo'linmalar tomonidan bajariladigan funksiyalardan iboratdir.

III. Huquq va majburiyatlari

3.1. Boshqarma o'z vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

a) Boshqarma faoliyatiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni boshqa tarkibiy bo'linmalar va hududiy bo'linmalardan olish;

b) Boshqarma faoliyatini Bankning ish rejalariga muvofiq ravishda tashkil etish ;

v) Boshqarma vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan Bank Boshqaruv va rahbariyatga tegishli takliflar kiritish;

g) Boshqarma va uning xodimlarini ularning samarali ish faoliyatini tashkil qilish uchun barcha turdagi zaruriy anjomlar hamda moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash;

d) Boshqarma ishiga taaluqli bo'lgan tadbirlarda, shu jumladan yig'ilishlar, seminarlarda ishtirok etish.

3.2. Boshqarmaga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

a) Bank siriga taaluqli bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

b) mehnat va ijro intizomiga qat'iy rioya qilish;

v) belgilangan hisobotlarni o'z vaqtida topshirish;

g) zimmasiga yuklatilgan vazifalar va belgilangan vakolatlar doirasida joriy va istiqbolga mo'ljallangan Bank rejalarining bajarilishini ta'minlash.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini" talablarining buzilish holatlari aniqlangan taqdirda, bu haqda Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish xizmatiga ma'lumot taqdim etish.

IV. Javobgarligi

4.1. Boshqarma belgilangan vakolat va huquqlar doirasida funktsional vazifalarni sifatli va o'z muddatida bajarilishi yuzasidan javobgardir.

4.2. Kreditni limitlash boshqarmasining boshqa xodimlarini javobgarlik darajasi ularning lavozim yuriqnomasi bilan belgilanadi.

V. Yakuniy qoidalar

5.1. Mazkur Nizom belgilangan tartibda Bank Boshqaruvi yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanib va tegishli tarzda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5.2. Ushbu Nizom kuchga kirishi bilan 2021 yil 02 avgustdagi 691-son bilan ro'yxatga olingan «Kreditni limitlash bo'limi to'g'risida»gi Nizom o'z kuchini yo'qotadi.